Sultonova Dilnoza Sohibjonovna (Namangan davlat universiteti doktoranti;dilnozasultonova@748gmail.com)

KRIMINAL BADIIY ASARLARNI QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kriminal badiiy asarlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilishning nazariy va metodologik asoslari, adabiyotshunoslikda kriminal janrning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda turli milliy adabiyotlarda namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: kriminal adabiyot, qiyosiy tahlil, tipologiya, janr, obrazlar tizimi, konflikt, estetik xususiyat.*

Султонова Дилноза Сохибжоновна (докторант Наманганского государственного университета; e-mail: dilnozasultonova@748gmail.com)

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА КРИМИНАЛЬНЫХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и методологические основы сравнительно-типологического анализа криминальных художественных произведений, процесс формирования криминального жанра в литературоведении, этапы его развития, а также особенности его проявления в различных национальных литературах.*

Ключевые слова: *криминальная литература, сравнительный анализ, типология, жанр, система образов, конфликт, эстетические особенности.*

Sultonova Dilnoza Sohibjonovna (Doctoral Student, Namangan State University; e-mail: dilnozasultonova@748gmail.com)

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF CRIME FICTION

Annotation. *This article examines the theoretical and methodological foundations of the comparative-typological analysis of crime fiction, the formation of the crime genre in literary studies, its stages of development, and the specific features of its representation in various national literatures.*

Keywords: *crime fiction, comparative analysis, typology, genre, system of characters, conflict, aesthetic features.*

Kirish (Introduction). Kriminal badiiy adabiyot inson psixologiyasi, jinoyatning sabablari, jamiyatdagi adolat va jinoyatga qarshi kurash masalalarini yoritishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu mavzudagi asarlar o'zining murakkab kompozitsion qurilishi, syujet dinamikasi va qahramonlar xarakterining chuqur tahlili bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqot mavzusi doirasida kriminal badiiy asarlarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini biz bevosita qiyosiy adabiyotshunoslik va uning tahlil metodlarini tadqiq etgan olimlarning asarlaridan qidirishimiz zarur bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). "Qiyosiy adabiyotshunoslik yoki adabiy komparativistika ikki va undan ortiq adabiy hodisaning qiyoslanishiga asoslangan fan yo'nalishidir... Har qanday qiyosiy tadqiqotda adabiy hodisalarning mushtarak va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. Bu esa adabiyotlararo umumiy nazariy qonuniyatlarning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiladi" [1]. Shu o'rinda, qayd etish kerakki, G'arbda qiyosiy adabiyotshunoslik tarixidagi ilk tajribalar XVIII asrda Germaniyada amalga oshirilgan [2].

Jamiyatdagi globallashuv zamonaviy jahon adabiyoti va madaniyatidagi integratsiyalashuv jarayonlari qiyosiy adabiyotshunoslikni hozirda filologiyaning yetakchi sohalaridan biriga aylantirdi. A.N.Veselovskiy, F.I.Buslayev, V.M.Jirmunskiy, M.P.Alekseyev, N.I.Konrad, I.G.Neupokoyeva, P.van Tigem, P.Azar, F.Baldansperje, R.Uellek, E.Kurtsius, D.Dyurishin, A.Dima singari dunyo ilmiy jamoatchiligi tan olgan olimlar esa ushbu soha nazariy va amaliy asoslarining shakllanishiga munosib hissa qo'shdilar [2]. O'zbek adabiyotshunosligida D.Quronov, G.Xalliyeva, A.Qosimov, A.Hamroqulov, S.Xo'jayev va boshqa olimlarning qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha shuqur tadqiqotlar, ilmiy maqola va qo'llanmalar chop ettirishdi. Shuningdek, O'zDJTU "Jahon adabiyoti" kafedrasi qoshida tashkil etilgan "Komparativistika" jurnali ham so'nggi davrda sohada amalga oshirilgan yangi qarashlarni e'lon qilish orqali bu sohaga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Aytish kerakki, mazkur olimlar va ularning ilmiy yutuqlari ushbu ishda kriminal asarlarni nazariy va tipologik jihatdan o'rganishimizda o'ziga xos muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, asarning sujeti va kompozitsiyasi, asar tili, motivlar, tarjima, asar poetikasi, yozuvchi mahorati, o'zga xalqning boshqa bir xalq adabiyoti haqidagi qarashlari, ya'ni, adabiy retsepsiyasi (o'zga xalq adabiyotini qabul qilish jarayoni) qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti bo'lishi mumkin [1]. Bundan tashqari komparativistika nazariyasiga ko'ra adabiy jarayonni ikki xil yondashuv orqali qiyoslash mumkin:

1. Adabiy jarayonga tarixiy genetik yondashuv (kelib chiqishi jihatidan bir xil yoki yaqin xalqlar adabiyoti).

2. Adabiy jarayonga qiyosiy-tipologik yondashuv (kelib chiqishidan qat'iy nazar, umumiy tomonlarga ega bo'lgan xalqlar adabiyoti) [1].

Masalan, turli xalqlar adabiyotidagi abadiy mavzular, an'anaviy qahramonlar, janrlar, adabiy yo'nalishlarni o'rganish masalasi.

Adabiyotni qiyosan o'rganish jihatdan komparativistika ikkita katta guruhga bo'linadi [1]:

1. Makrokomparativistika – genetik jihatdan bog'lanmagan turli millat doirasidagi adabiy hodisalarning qiyosiy tahlili. Ushbu tadqiqotda tahlil qilinadigan ingliz adiblari A.Kristi, J.Grisham, Stiven King kriminal asarlari bilan o'zbek adabiyotidagi T.Malik, N.Ismoil, I.Nishonovlar asarlarida detektiv, jinoyat unsurlarining qo'llanilishini tahlil qilish bevosita qiyosiy adabiyotshunoslikning shu turiga kiradi.

2. Mikrokomparativistika – bir millatga yoki hududga (region) mansub adabiy hodisalarning qiyosiy tahlili. Ingliz adiblari Jon Grisham hamda Stiven King bir makon va bir zamonda faoliyat yuritayotgan ingliz adabiyotining ikki yirik namoyandasi bo'lsa-da, ularning kriminal asar yozishdagi uslublarida o'ziga xosliklar mavjud. Tadqiqot jarayonida mazkur ikki adab ijodidagi mushtarak jihatlar bilan birga ana shu o'ziga xosliklarni tahlil etish qiyosiy adabiyotshunoslikning mazkur yo'nalishida yangiliklar qilishga asos bo'ladi.

Tabiat va jamiyatda, asosan, takrorlanuvchi, bir-biriga o'xshash yoki o'z tabiati, tuzilishi, mohiyati bilan bir-biriga zid bo'lgan narsa, hodisalar qiyoslash ob'ekti bo'lib hizmat qiladi. Bu hol adabiyotshunoslik fani, xususan, qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham badiiy-estetik metod vazifasini bajaradi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Adabiyotshunoslikda ma'lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyoslab o'rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Chunki shunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi va uning milliy, jahon adabiyoti rivojidagi o'rni belgilanadi. Yozuvchi ijodining o'ziga xos qirralarini o'rganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning o'xshash asarlari bilan qiyoslab tahlil qilish muhimdir. Tadqiqotchilar so'nggi yillarda o'xshashliklarni tipologik birlik asosida o'rganishga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Shunga qaramay, komparativistikaning tipologik o'xshashliklar deb ataluvchi bu qismi nazariy jihatdan genetik aloqalarga nisbatan chuqur tadqiq etilmagan [2].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek adabiyotshunoslari sanab o'tgan adabiyotni qiyosan o'rganishning ushbu asosiy to'rt muammosini kriminal mavzudagi asarlar misolida ko'rib chiqamiz.

Ijodiy metod, adabiy oqim, yo'nalishlar va adabiy jarayonlar – Agata Kristining klassik detektiv uslubi, Stiven Kingning psixologik-triller yondashuvi, Grishamning yuridik kriminal sujeti, Tohir Malik va Nuriddin Ismoilning ijtimoiy-siyosiy jinoyatni tasvirlashdagi yondashuvlari buning yorqin misollaridir.

Adabiy tur va janrlar masalasi – kriminal asarning detektiv, triller, sarguzasht, sud-protsess janri kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi.

Ijodkorning uslubiy mahorati – bu jihatdan Agata Kristining mantiqiy syujet qurish mahorati bilan Nuriddin Ismoilning obrazlar orqali murakkab ijtimoiy muammolarni ko'rsatish uslubi bir-biriga qarama-qarshi tursa-da, har ikkisining badiiy tasvir usuli yuqori darajada.

Badiiy asarning estetik va ijtimoiy qiymati – o'quvchi ongiga ta'sir qilish, voqealarning hayotiyligi, axloqiy baho va jinoyatga bo'lgan munosabatda aks etadi.

Endi bevosita kriminal adabiyotni qiyosan o'rganishda nazariy va metodologik yondashuvlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni qiyosan o'rganish masalasi chuqur ilmiy tahlil va asosli metodologiyani talab etadi. Xususan, kriminal adabiyotga oid badiiy asarlarni o'zaro solishtirishda nafaqat mazmuniy va shakliy unsurlar, balki tarixiy, ijtimoiy, madaniy kontekstlar ham hisobga olinadi. Bu borada taniqli adabiyotshunos olim D.Dyurishinning adabiyotlarni qiyosiy o'rganish haqidagi qarashlari alohida e'tiborga molikdir [3].

Kriminal asarlarni taqqoslashda mualliflar, sujetlar, jinoyat turlari yoki adabiy maktablar qanchalik o'zaro mos kelishini aniqlash zarur. Masalan, Agata Kristi va Tohir Malik asarlari ikkisida ham jinoyat markazda tursa-da, ularning jinoyatga yondashuvi, madaniy konteksti va sujet qurilishi turlicha. Qiyosiy

tahlil uchun aynan qanday jihatlar – sujet tuzilishi, qahramon arxetiplari, jinoyat sabablari asos bo‘lishi kerakligi avvaldan belgilanishi zarur.

O‘zbek adabiyotshunoslari qayd etishganidek, “qiyoslash obyektlari tanlovi tasodifiy bo‘lmay, sohadagi mavjud bilimlar zairasiga tayangan holga amalga oshiriladi. Bunda deduksiya metodiga tayaniladi. Qiyoslash jarayonining o‘zi induktiv xarakterga egadir” [2]. Bu borada amaliy misol sifatida Agata Kristining “The Murder of Roger Ackroyd” asari va Tohir Malikning “Shaytanat” romanini qiyoslash mumkin, chunki ikkalasida ham murakkab jinoyat, tergov jarayoni va jinoyatchining asl shaxsini aniqlash markaziy syujetni tashkil qiladi.

Kriminal adabiyotning taraqqiyot bosqichlarini davrlar bo‘yicha ajratish, ularni mualliflarning adabiy faoliyati bilan bog‘lash orqali aniqlik kiritiladi. Masalan, Kristi romanlari XX asr boshlarida klassik detektiv janrining yuksalish davrini ifodalasa, Grisham asarlari postmodern huquqiy trillerlar davrini aks ettiradi. O‘zbek adabiyotida esa Tohir Malik 1980–1990-yillardagi ijtimoiy o‘zgarishlar fonida jinoyatga yondashadi. Shunday qilib, har bir muallif o‘z davrining jinoyat, adolat va axloqiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini ifoda etadi.

Fikrimizni yanada aniqroq bayon etsak, A.Kristida bu 1920-yillarda Angliyadagi hayot – postimperial, jazolash va adolat yondashuvi aks etsa, Tohir Malikning 1990-yillarda yaratilgan asarlarida O‘zbekistonda – mustaqillik boshlanishi yoki sobiq sho‘rolar tuzumi davridagi turli jinoiy guruhlar avj olgan payt tasvirlari gavdalantiriladi. Bu yondashuv asarlarning ijtimoiy kontekstini tushunishga yordam beradi.

D.Dyurishinning metodologik komponentlari kriminal adabiyotning qiyosiy-tipologik tahliliga ham to‘liq tatbiq etilishi mumkin. Sujet strukturasidan tortib qahramonlarning tipologiyasigacha, madaniyatlararo retseptsiya va davriylik masalalarigacha bo‘lgan har bir omil jinoyat adabiyotini chuqur tahlil qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunday yondashuvlar orqali kriminal janrning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, kriminal badiiy asarlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish ularning janr xususiyatlarini chuqur anglash, turli adabiyotlarda jinoyat va adolat muammosining badiiy talqinini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali o‘zbek va jahon adabiyotidagi kriminal motivlar, syujet qurilishi, obrazlar tizimi hamda axloqiy-estetik masalalarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi. Natijada kriminal janrning milliy adabiyotdagi o‘rni, ijtimoiy-badiiy ahamiyati va ma’naviy-estetik vazifasi ilmiy asosda yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. T., “Akademnashr”, 2020.
(2). Qosimov A., Hamroqulov A., Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. T., “Akademnashr”, 2019.
(3). Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. М., “Прогресс”, 1979, с. 183.

Alqarov Nazarbek Alisher o‘g‘li (University of Innovation Technologies o‘qituvchisi; alkarovnazarbek@gmail.com)

HAYVONLAR OBRAZI VA UNING BADIIY ADABIYOTDA RAMZLASHTIRILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy adabiyotda hayvon obrazlarining ramziy talqini va ularning estetik hamda madaniy funksiyalari tahlil qilinadi. Biz tadqiqotda ot, bo‘ri va mushuk obrazlari misolida turli madaniyatlarda shakllangan ramziy ma’nolar, totemistik qarashlar va badiiy transformatsiyalar ochib berishga harakat qildik. Jahon va o‘zbek adabiyoti namunalariga tayangan holda, hayvon obrazlari inson ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar hamda axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi semantik birlik sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy obraz, ramz, totemizm, ot timsoli, bo‘ri obrazi, mushuk ramzi, madaniy semantika, folklor, mifologiya, psixologik talqin, estetik funksiya, adabiy transformatsiya.*

ОБРАЗЫ ЖИВОТНЫХ И ИХ СИМВОЛИЗАЦИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется символическое осмысление образов животных в художественной литературе, а также их эстетические и культурные функции. В исследовании на примере образов коня, волка и кошки предпринята попытка раскрыть символические значения, сформировавшиеся в различных культурах, тотемистические представления и художественные трансформации. На материале произведений мировой и узбекской литературы образы животных интерпретируются как семантические единицы, отражающие психологию человека, социальные отношения и нравственные ценности.*